

THE MORAL SIGNIFICANCE AND SOCIAL NECESSITY OF PEACEMANSHIP

Juraev Ahmad Muhammadiyevich

Doctor of Philosophy (PhD), Teacher of the Department of Social Sciences of
"Alfraganus University"

ORCID - 0009-0004-7341-0876

Abstract

In this article, issues related to the moral importance of peacekeeping, its influence on the spiritual image of society, and their role and necessity in ensuring the development and stability of society in the context of globalization are discussed based on the teachings of Islam, Christianity, Aristotle, Pharobii, H. Vamberi, B. Russell, A. Einshtein, E.Giddens, P. Byuchanan, A.Sher, Sh.Mirziyoev, as well as the issues of the application of pacifist ideas in the development of society are analyzed. Studying the causes and analyzing the consequences of threats to the stability of regions and states, civil peace, and social well-being are noted as important factors of spiritual and moral development.

Global problems of the present time, that is, ensuring peace on earth, preventing thermonuclear conflict and establishing a just international economic-political new order; effective environmental protection; achieving a balance between the number and composition of the population and the creation of material and moral values; reliable provision of necessary food and energy resources to the population of the land; solutions to problems such as the eradication of hunger, poverty and backwardness are explored.

Keywords: Peacefulness, peace, stability, globalization, social development, humanitarianism, justice, patriotism, democracy, culture of peace, social harmony, moral security.

TINCHLIKPARVARLIKNING AXLOQIY AHAMIYATI VA IJTIMOIY ZARURIYATI

Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич

“Алфраганус университети” ижтимоий фанлар кафедраси

ўқитувчиси фалсафа фанлари доктори (Phd)

ORCID - 0009-0004-7341-0876

Анатация:

Ушбу мақолада тинчликпарварликнинг ахлоқий аҳамияти, жамиятнинг маънавий қиёфасига таъсири ва уларнинг глобаллашув шароитида жамият тараққиёти ва барқарорлигини таъминлашдаги ўрни ва зарурати билан боғлиқ масалалар Ислом, Христианлик динлари таълимоти асосида ва Афлотун, Арасту, Форобий, Х.Вамбери, Б.Рассел, А.Эйнштейн, Э.Гидденс, П.Бьюкенен, А.Шер, Ш.Мирзиёевларнинг асарлари шунингдек, тинчликпарварлик ғояларини жамиятни ривожлантиришда қўллаш бўйича масалалар таҳлил қилинади. Ҳудуд ва давлатлар барқарорлиги, фуқаролар тинчлиги, жамият фаровонлигини бузишга қаратилган таҳдидларнинг сабабларини ўрганиш ва

оқибатларини таҳлил қилиш маънавий-ахлоқий ривожланишнинг муҳим омиллари сифатида қайд этилади.

Хозирги даврнинг глобал муаммолари, яъни ер юзида тинчликни таъминлаш, термоядро тўқнашувишининг олдини олиш ва адолатли халқаро иқтисодий-сиёсий янги тартибот ўрнатиш; самарали атроф-муҳит муҳофазаси; аҳоли сони ва таркиби ҳамда моддий ва маънавий-ахлоқий қадриятларни яратиш ўртасидаги мутаносибликка эришиш; ер ахолисини зарур озиқ-овқат ва энергия манбалари билан ишончли таъминлаш; очлик, қашшоқлик ва қолоқликка барҳам бериш каби масалалар ечими тадқиқ этилади.

Калит сўзлар: Тинчликпарварлик, тинчлик, барқарорлик, глобаллашув, ижтимоий тараққиёт, инсонпарварлик, адолатпарварлик, эркпарварлик, ватанпарварлик, демократия, тинчлик маданияти, ижтимоий аҳиллик, маънавий хавфсизлик.

Tinchlik, tinchlikparvarlik va barqarorlik har qaysi davr ruhi, jamiyat qiyofasi va davlatning axloqiy asosi uchun muhim bo‘lib kelgan. Hatto davlatlar o‘rtasida tuzilgan ilk shartnoma ham tinchlik shartnomasi bo‘lganligi to‘g‘risida tarixiy manbalar guvohlik beradi. Chunonchi, Aflatun tinchlikparvarlikni tinchlikka erishish, yarashish natijasi, urush va nizolar oqibati asosida izohlaydi. U “Tinchlikka erishish birovlarning halokati va boshqalarning g‘alabasi evaziga bo‘ladimi yoki do‘slik va tinchlik yarashuv natijasi sifatida paydo bo‘lib, barcha e’tibor tashqi dushmanlarga qaratilishi kerakmi?” – degan savolni qo‘yadi va urushni ham, o‘zaro nizoni ham rad etadi. Urush va nizoga ehtiyoj paydo bo‘lgan joyda inqiroz (mudhish ish) yuzaga keladi. Shuning uchun faylasuf “Tinchlik bu umum do‘slikdir. Davlatning o‘zi ustidan o‘zi g‘alaba qilishi albatta eng yaxshilikka emas, eng zaruriylik borasiga taalluqlidir. Bu holat, xuddi birov o‘z badanining eng yaxshi ahvoli bu badan aziyat chekib, shifokorning da’vosiga, poklanishga muhtojlik deb o‘ylashi va bunga ehtiyoji bo‘lmagan badanga e’tibor berilmaydigan holatning o‘zidir. Xuddi shunga o‘xhash, butun davlat va xususiy shaxslar farovonligini nazarda tutib, avvalo va faqatgina tashqi urushlarga e’tibor beruvchi odam haqiqiy davlat odami bo‘la olmaydi. U yaxshi sohibi qonun ham bo‘lolmaydi, u, urush harakatlari maqsadida tinchlikka taalluqli qonunlarni emas, tinchlik maqsadidagi urushga taalluqli qonunlarni o‘rnatadi, xolos”¹. Aflatun qarashlarida tinchlikparvarlikning davlat darajasida qo‘llab quvvatlanishi, yangi qarashlar orqali tinchlikni qadrlash zarurligi e’tirof etilgan. Shuningdek, siyosiy jihatdan tinchlikka erishishning o‘ziga xosliga asoslangan.

“Tinchlik” so‘zi Qur’oni Karimda 40 marta uchraydi. Bu muqaddas kitobning “A’rof” surasi 56-oyatida shunday deyiladi: “Yer yuzida tinchlikni buzib, fasod-janjal qilmanglar. Haq taoloning rahmati yaxshi ehson qiluvchilarga yaqindir”.² Umuman olganda, Islom ta’limotiga ko‘ra “jaholat”, “razolat”, “adovat”, “qabohat” va “fitna-fasod” kabi illatlar orqali tinchosoyishta hayotni buzish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Allohga qarshi isyon sifatida qabul qilingan. Tinchlikni ta’minlash insoniy fazilat ekanligini shu asoslarda ham ko‘rishimiz mumkin.

Islom dinida “Tinchlik - inson qalbining tinchligidan boshlanadi”, degan nazariya muhim o‘rin tutadi. Qalbdagi bu tinchlik oilaga ko‘chadi. Bu ketma-ketlik va bir-birini to‘ldiruvchi ma’naviy jarayon bo‘lib, Islom oila tinchligi uchun zarur bo‘lgan barcha choralarini ishga

1 Афлотун. Қонунлар. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. –Б 11-13.

2 Куръони Карим. –Тошкент: Чўлпон нашриёти, 1992. 267 б.



soladi, oilalardagi tinchlik qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘lar orasiga ko‘chadi. Qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘lar bilan tinch yashash yo‘l-yo‘riqlari asosida tinchlikning mazmuni yanada boyitiladi. So‘ngra, bu tinchlik jamiyatga o‘tadi. Har bir jamiyat o‘zaro tinchlikda yashash uchun nimalar qilishi lozimligi ham Islomda belgilab qo‘yilgan.

Islomda davlat bilan fuqarolar orasidagi tinch-totuvlik asoslari ham, davlatlararo tinch-totuvlik yo‘l-yo‘riqlari ham mukammal yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, Islomning mohiyati ifodalagan tinchlikning mukammalligi butun dunyo tinchligiga erishishni nazarda tutadi. Unda barcha qalblar tinch, oilalar, jamiyatlar va davlatlar tinch, hayvonot, nabotot va butun borliq tinch bo‘ladi.

Tinchlikparvarlikning axloqiy mohiyatiga doir qarashlar “Ikkinchi Arastu” nomi bilan mashhur alloma vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy ta’limotida jumladan, “Fozil odamlar shahri” asarida atroflicha bayon etilgan. U odamlarga nisbatan “Ularni birlashtirib turuvchi asos insoniylikdir, shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo‘lgani uchun ham o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim”³ deydi. Mutafakkir o‘zining falsafiy tizimiga asoslanib insoniyatni bir butun Buyuk jamiyat deb qaraydi. Butun insoniyatni birlikka birlashtirish mutafakkirning orzusi edi. Insoniyat doimiy sinfiy, diniy, irqiy, milliy ziddiyatlar oqibatida doimiy urushlar tufayli turli guruhlarga bo‘linib ketgan davrda bunday g‘oyaga ega bo‘lish allomaning insonparvarligi va optimizmidan dalolat beradi.

Forobiy kishilik jamiyatni taraqqiyotida davlat va boshqaruvning o‘rni, siyosiy boshqaruvdaadolat mezonlari, muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlaydi. Natijada davlat bevosita jamiyatni ezgulikka da’vat etuvchi, bunyodkorlik fazilatlarini boyituvchi, rivojlantiruvchi, takomillashtiruvchi mexanizm darajasiga ko‘tariladi. Alloma “Agar shahar o‘z qonunchiligida haqiqiy muhabbat, yuksak axloq, barkamol aqlga ega bo‘lmasa, uning qismati halokat va parokandalik bo‘ladi, agarda bu uch (go‘zal nuftalar) bo‘lsa albatta u farovonlikka erishadi”, – desa, boshqa bir holatda “Boshqaruv ham qonunlarning soniga va qadriyatiga bog‘liq. Yaxshi boshqaruv yaxshi qonunlarga bog‘liq, yomon boshqaruv – yomon qonunlarga, yetuk boshqaruv – yetuk qonunlarga bog‘liq” – deb hisoblaydi. Bu bilan Forobiy tarixiy jarayon hisoblanadigan mamlakat hayoti, ma’naviy axloqiy qiyofasi, farovonlik darajasi boshqaruvda tinchlik va tinchlikparvarlikni ustuvor deb bilish zarur ekanligini nazarda tutadi. Tinchlikparvarlik – insonga xos fazilat bo‘lib, u qat’iyatlilik, hamjihatlik, birdamlik, o‘zaro hamkorlik va do‘stona munosabatlar tizimini normallashtirishga xizmat qiladi. Tinchlikni saqlash, tinchlik va totuvlikka bo‘lgan intilish gumanistik – ya’ni insonga qaratilgan va insoniy fazilat darajasidagi hodisadir. Tinchlikka nisbatan insondagi ichki motivatsiya yangi marralarga o‘tishga, o‘z dunyoqarashini jamiyatga moslashtirishga, tinchlikni hayotida takrorlanmas noyob, o‘rnini boshqasi bilan to‘ldirib bo‘lmaydigan, o‘zidan boshqalarga ham tinchlikni qadrlashga undaydigan, milliy surinitetni tan oladigan va uni mustahkamlashga o‘z hissasini qo‘sha olishdekl vazifalarni bajara oladi.

“Har bir millatning o‘z hayot tarziga monand yashash huquqini muqaddas deb tan olishiga olib keladi, mamlakatlararo jamoat tartibini saqlashga, avlodlar ravnaqiga, tarixiy-madaniy

³Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашиёти, 1993. -186 б.

hamkorlikka millatlar va turli ijtimoiy guruhlar orasida o‘zaro tushunishning qaror topishiga xizmat qiladilar”⁴.

Tinchlikparvarlik, falsafa ilmiga doir o‘quv adabiyotlarda “tamoyil”, “tushuncha”, “kategoriya” sifati talqin etilmagan. Shu bois, uning mazmunini tushuntirishda quyidagi jihatlarga e’tibor berish maqsadga muvofiq:

Birinchi jihat jamiyat va davlatda tinchlikni istagan (xohlagan) va uni o‘zining mafkuraviy shioriga aylantirgan kishilar “tinchlikparvarlar” deb nom oldi va keyinchalik ularning soni va ma’lum strategik maqsadlarga ega bo‘lgan mafkuralari shakllanganligi bilan izohlash mumkin. Bu jarayonda ko‘plab insonlar tinchlikparvarlik harakatiga birlasha boshladi. Dastlabki harakatlar Ikkinci jahon urushidan keyin Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo mamlakatlar doirasida avj ola boshladi.

O’tgan asrning 50-yillarida jahon urushining oldini olish uchun agressorlarga qarshi, xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash uchun kurashga juda keng ommani qatnashtirish, barcha tinchliksevar kuchlarning faolligini o‘stirib borish g‘oyatda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ayniqsa, atom urushiga tayyorgarlik ko‘rishga qarshi norozilik shiori ostida 1949-yil bahorida vujudga kelgan tinchlik tarafdarlarining harakatlari turli siyosiy e’tiqod, din va qarashlardagi kishilarni qamrab olishga erishdi. 1955-yilning 9-iyul kuni Londonda imzolangan “Rassel-Eynshteyn Manifesti” nomi bilan tarixga kirgan hujjatning global axloqiy ahamiyati haqida quyidagi mulohazalarimizni bayon etish o‘rinlidir.

XX asrning 60-yillarida, ya’ni “sovuz urush” ayni avjiga chiqqan davrda, butun insoniyat va xalqaro hamjamiyatning diqqat e’tibori asosan yadroviy to‘qnashuvning oldini olishga qaratilgan edi. “Karip inqirozi” deb nom olgan SSSR va AQSh o‘rtasidagi mojarodan so‘ng yadro quroliga ega bo‘lgan “katta davlatlar” bir narsaga – atom, neytron, vodorod qurollarining oz miqdorda bo‘lsa ham ishlatilishi nafaqat raqibiga, balki o‘z uyining ham barbod bo‘lishiga olib kelishi mumkinligiga iqror bo‘lishdi. Ommaviy qirg‘in keltiruvchi qurollarning qo‘llanilishi va uchinchi jahon urushining boshlanishi yerdagi hayotning tugashi ekanligini butun insoniyat tushunib yetdi. Bu urushda na mag‘lublar va na g‘oliblarning bo‘imasligi isbot talab qilmaydigan aksiomaga aylanib qoldi.

1955-yil 31-yanvarda fransuz fizigi, Butunjahon ilmiy tadqiqotchilar federatsiyasining sobiq prezidenti Fredirik Jolio-Kyuri ingliz faylasufi va jamoat arbobi Bertran Rasselga xat bilan murojaat qiladi. Xatda o’sha davrdagi yadro halokatlarining insonga tahdidi borasidagi masalalar ko‘tarilgan va mana shu masala atrofida dunyo olimlari hamjihat bo‘lishligi ta’kidlangan edi. Rassel bu tashabbusni qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq, mazkur manifestga dunyodagi tengsiz olimlar imzo chekishlari talab qilinadi. Rassel ham shu o‘rinda mazkur manifestga biror bir siyosiy harakatga a’zo bo‘limgan, aksincha, umummanfaat qarashlarini qo‘llaydigan kishilar imzo chekishlarini so‘raydi. Shundan keyin mazkur manifestga kapitalistik va sotsialistik dunyoning 11 nafar olimlari tomonidan (barchasi Nobel mukofoti laureatlari edi) imzo chekilgan manifest yuzaga keladi.

Tinchlikparvarlikning axloq falsafasining eng muhim tamoyili sifatidagi mohiyati uning umummilliy va umuminsoniy ahamiyat kasb etishida. Zero, u mohiyatan tinchliksevarlikdan

4 Абдулла Шер. Ахлоқшунослик /Дарслик.-Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2010. - 278 б.

 farq qiladi: tinchlikni sevish hammaning ham qo‘lidan keladi, biroq uni parvarishlashga barcha ham qodir emas. Bertran Rassel o‘zining falsafiy-axloqiy g‘oyalarida Albert Eynshteyn esa zamonaviy fizika sohasidagi buyuk kashfiyotlarida ana shunday tinchlikni parvarishlay olgan, uni qo‘llab-quvvatlagan, uni asragan mutafakkirlar sirasiga kiradi. Ikkalasi ham umumiy qurolsizlanish va ommaviy g‘irg‘in qurollari targ‘ibotiga qarshi faol kurashchilar sifatida insoniyat tarqqiyoti ishiga xizmat qildi.

Bizning nazarimizda, Manifestning nomida avval faylasuf nomini keltirilishining asosiy sababi faylasuf-axloqshunoslar orasida Bertran Rasselgina tinchlikparvarlikning umuminsoniy ahamiyati borasida dadil fikrlarni bildirganligida, qolaversa, axloq ijtimoiy taraqqiyot barqarorligining asosiy mezoni ekanlidigadir.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, o‘tgan asrning 1980-1985-yillar oraliq‘ida harbiy sohadagi ilmiy tadqiqotlarga sarflangan harajatlar 250% ga o‘sdi. Biroq, boshqa sohalardagi ilmiy tadqiqot ishlari bu davrda bor-yo‘g‘i 75 % bo‘ldi.

Odatda urushni boshlaganlar emas, urushda qatnashganlar ko‘proq jabr ko‘radi. Ularning aksariyatini esa tinch aholi tashkil etadi. Shu ma’noda, bildirilgan quyidagi fikrning keyingi davrlar uchun ham dolzarbligini inobatga olsak, “Manifest”ning umumbashariy axloqiy qadriyat sifatida yuksak maqomga ega ekanligini anglash qiyin emas: “Biz yangicha fikrlashga o‘rganishimiz kerak. O‘zimizdan biz mansub bo‘lgan lagerning harbiy g‘alabasiga erishish uchun qanday qadam tashlash haqida so‘rashni o‘rganishni emas, zero bunday yo‘llar endilikda mavjud ham emas; biz o‘zimizga quyidagi savolni berishimiz lozim: natijasi barcha qatnashchilari uchun falokatli bo‘lgan harbiy kurashning oldini olish uchun qanday qadam tashlash kerak? Jamoatchilik va xatto ko‘pchilik davlat arboblari yadroviy urushda o‘rtaga nima qo‘yilishini anglamaydilar. Jamoatchilik unga hanuzgacha shaharlarni yo‘q qilish vositasi sifatida qaramoqda. Barchaga ayonki, yangi bombalar eskilariga qaraganda quvvatliroqdir va bir atom bombasi Xirosimani yo‘q qilishga qodir bo‘lganidek, bir vodorod bombasi Yer yuzidan London, Nyu-York va Moskva kabi eng yirik shaharlarni yo‘qotishga yetarlidir.”⁵

Oradan yarim asr o‘tishiga qaramasdan, global muammolar tobora huruj qilayotgan davrda ushbu Manifestning ahamiyati yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Termoyadro xavfi, urush va tinchlik muammolari, terrorizm yalpi ekologik tahdid, genotsid, millatlararo va diniy nizolar kabi jiddiy va insoniyat taqdiri bilan bog‘liq muammolarni mumkin qadar bartaraf etish Inson zimmasidagi eng og‘ir mas’uliyatdir. Zero, “hozirgi kunda dunyoda kamida 50 000 dan ziyod yadroviy quroq mavjud. Bu yo‘nalishda ilgari siljishga tayyor turgan yana bir qancha mamlakatlar ham borligi xalqaro munosabatlardagi vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. Hech kim yana 30 - 40 davlat yadroviy qurolni qo‘lga kiritса dunyodagi tinchlik va xavfsizlikni hech kim kafolatlanadi deb ayta olmaydi”⁶, deb takidlaydi jamiyatshunos olim E.Giddens. O‘z yadroviy quroli mavjudligini agressiyani jilovlash zaruriyati bilan oqlayotgan G‘arb davlatlari uchun boshqa davlatlar ham xuddi shu sababga ko‘ra unga ega bo‘lishni xohlashlari tabiiy holdir.

Amerikalik faylusuf P.J.Byukenen “Har bir jamiyat va har bir inson o‘zi uchun muayyan axloqiy qoidalari tizimini yaratadi. Biz oqilona fikrlaydigan mavjudot ekanmiz, hayot tashvishu

5 The Russell-Einstein Manifesto. Манифест Рассела-Эйнштейна.

6 Энтони Гидденс. Социология. Тошкент, Шарқ, 2002 Б. 387421.

quvonchlariga qay tarzda chek qo'yish (o'z qo'limiz bilanmi yohud oilamiz va shifokorlar yordamidami, farqi yo'q) masalasini mustaqil tarzda hal qilishga haqlidirmiz”⁷-degan fikri, ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida axloq, davlat va jamiyat, inson va xalq taraqqiyoti uchun muhim hodisa ekanligini ko'rsatmoqda. Zero, barcha fanlardagi kabi, xususan, axloqda ham biror hodisaning mohiyatini bilmay turib, u qanday hosil qilinishini tushunish mumkin emas. Shu bois tinchlikparvarlikning tushuncha va tamoyil sifatidagi mazmunini anglash muhim masala.

Tinchlikparvarlikning axloqiy tamoyil sifatida insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega hodisa ekanligi axloq falsafasiga oid manbalarda bayon etilgan. Jumladan, faylasuf-axloqshunos Abdulla Sher tinchlikparvarlikni alohida g'oya sifatida, urushni esa antigumanistik mohiyatda ta'riflaydi.

“Urushning, qon to'kishning har qanday ko'rinishini inkor etadi, tinchliksevar shaxsning tinch-totuv yashashga bo'lgan ijobjiy munosabati bilangina chegaralanib qolmaydi, balki dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi kurashga zarba berishni taqozo etadi. Unda tinchlik haqida chiroyli gaplar aytish, yig'inlarda ma'ruzalar qilish emas, balki faol xatti-harakat, uyushtiruvchilik, tashkilotchilik birinchi darajali zaruriy faoliyat hisoblanadi”⁸.

Bundan anglanadiki, tinchlikparvarlikning natijadorligi - a) harakatchanlikka (o'zaro hamkorlikka intilish); b) uyushtiruvchilikka (o'zaro manfaatli munosabatlar); v) tashkillashtirishga (murosa, kompromis, vositachilik) bog'liq.

Tinchlikparvarlik axloqiy tamoyil sifatida faqatgina insoniyatning tinch – totuv hayot kechirishi haqidagi ta'limot yoki harakat bo'lib qolmay, balki insoniyatga qarshi qaratilgan turli vayronkor mafkuralar bilan kurashuvchi ta'limot va harakatdir. Bu yerda tinchlikparvarlikning strategik xarakteriga diqqat qaratmog'imiz lozim. Biror – bir harbiy mojaroni hal etishda tinchlikparvarlik taktik xususiyat kasb etadi.

Tinchlikparvarlik g'oyalari tinchlikparvarlik nazariyasi yoki amaliyotidan kelib chiqqan holda strategik prognozlash va hal etish yo'llarini taqdim etadi.

Bugungi kunda tinchlik, tinchlikparvarlik, barqarorlik, osoyishtalik kabi tushunchalar o'z ma'no mohiyati bilan turli ijtimoiy voqe'likni tushuntirishga xizmat qiladi. Har qanday ijtimoiy siyosiy islohotlar uchun qulay sharoit yaratilishiga xizmat qiladi.

Tinchlik va barqarorlikning axloqiy-ma'naviy xarakteri inson kamoloti va eng muhimi ma'nан xotirjamlikni o'zida mujassamlashtiradi. Bu tamoyillarning o'ziga xos funksiyalari urushlarga yo'l qo'ymaslik, davlatlararo nizo va mojarolarni siyosiy vositalar bilan hal etish, mamlakat ichidagi kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf qilish, inson huquqi va qonun ustuvorligini ta'minlash kabi vazifalarni bajarishni ifodalaydi.

Ikkinchi jihat - tinchlikni yuksak axloqiy qadriyat darajasiga ko'tarilishi bilan bog'liq. Bugungi kunda urush va o'zaro nizolarga chek qo'yish dolzarb vazifalardan biriga aylana boshladi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlansa, odamzot o'n besh mingdan ziyod katta-kichik urushlarni boshidan kechirgani, tinchlik masalasi hanuzgacha insoniyat oldidagi eng global muammo

7 Бьюкенен Патрик Жозеф. Фарбнинг ўлими. –Тошкент: “Илм-Зиё-Заковат” нашриёти, 2021. – 69 б.

8 Абдулла Шер. Ахлоқшунослик /Дарслик.-Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2010. - 278 б.



 bo‘lib qolayotganidan dalolat beradi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, tinchlik uchun kurash harakati – demokratik harakat hisoblanadi. Sababi, u o‘z oldiga biror tuzumni ag‘darib tashlab, uning o‘rniga boshqa tuzumni o‘rnatishni maqsad qilib qo‘ymaydi, balki, u ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashga yordam beradi, bu borada bosqinchilik, jaholat va zo‘ravonlik rejalarini barbod qilishga imkoniyat yaratadi. Aksincha, urush va nizolar odamni odamiylik qiyofasidan ayirdi, davlatlarni inqirozga, jamiyatni ma’naviy tanazzul yoqasiga olib keldi. Birgina, o‘ttiz yildan buyon o‘zaro harbiy mojarolar tufayli sivilizatsiyadan batamom uzilib, dunyoning eng qoloq mamlakatlaridan biriga aylanib qolgan Afg‘oniston va sivilizatsiyalar to‘qnashushi sifatidagi nizolar girdobidagi Yaqin Sharqdagi nizolar buning yaqqol dalilidir. Bu mintaqaning xavf-xatar o‘chog‘iga aylanib qolgani, nafaqat mintaqadagi balki jahon siyosiy maydonidagi barqaror holatlarga ham ta’sir ko‘rsata boshladi.

Yer yuzidagi tinchlik ko‘p darajada johillik illati bilan ma’rifatlilik fazilati o‘rtasidagi munosabatlarning qanday vaziyatda bo‘lishiga bog‘liqdir. Tinchlikparvarlikni ta’minalash va rivojlantirish masalasida O‘zbekistonning axloqiy pozitsiyasi jadal islohotlar, ilm-ma’rifat, pragmatik va innovatsiya orqali amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Shu ma’noda, bugungi taraqqiyot jarayonlariga to‘sinqlik qilayotgan murakkab va ziddiyatli tendensiyalar mavjudligini nazarda tutgan O‘zbekiston davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev “Bizning ustuvor vazifamiz – inson salohiyatini ro‘ybga chiqarishga har tomonlama ko‘maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta’minalashning asosiy sharti”⁹ – ekanligini ta’kidladi.

 Uchinchi jihat – tinchlikparvarlik xalqning turmush tarzi, an’analari, axloqiy qiyofasi, mental xususiyatiga xos a’mol (ideallar) in’ikosi bilan belgilanadi. Har bir xalq tinch-totuv yashashni, bunyodkorlik, yaratuvchanlikni afzal ko‘radi. Ayniqsa, o‘zbek xalqining ezgu niyatli, ochiq ko‘ngil, hammaga yaxshilikni ravo ko‘rib yashaydigan xalq ekanini ko‘pchilik chet ellik sayyoohlar, olimlar ham ta’kidlagan. Masalan, mashhur venger olimi German Vemberi o‘z asarlarida turkiylarning mehmondo‘st, tinchliksevar, sabr-qanoatli, og‘ir-bosiq xalq ekanini ta’kidlaydi.¹⁰

Tinchlikparvarlik tamoyili xalqning xulq-atvorida, xarakterida tarbiya orqali, ko‘p yillik hayotiy tajriba vositasida tarkib topadigan hodisa.

Preziden Sh.M.Mirziyoyevning yangicha pragmatik yondashuvlari natijasi o‘laroq tinchlikparvarlikning milliy mohiyati xalqning roziligidagi ekanligi alohida ta’kidlandi. “Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz avvalo biz – rahbarlarning faoliyatidan rozi bo‘lishi kerak. Buning uchun har bir rahbar o‘z aravasini o‘zi tortishi, o‘z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o‘zi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda o‘zgarish bo‘ladi, rivojlanish bo‘ladi”¹¹ deb ta’kidlaydi.

9 Мирзиёев Шавкат. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: Ўзбекистон, 2021. -22 б.

10 Херман Вамбери. Бухоро тарихи. -Тошкент: Фан, 1990. -26 б.

11 Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-щисодий ривожлантаришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган щисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига багишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъзуза. 2017 йил 14 январь. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. - 104 б.



Tinchlikparvarlik o‘zbek xalqi mentaliteti, orzu-niyatlari, xulq-atvoridagi bosh fazilatlardan hisoblanadi. Bu xususiyat xalqimizga xos bo‘lgan mahalla bo‘lib yashash, beva-bechoralarga yordam berish, ularga qayishish, hashar va xayr-ehson uyushtirish, yaxshi qo‘schnichilik, saxovatpeshalik kabi qator oljanob an’ana va urf-odatlarda, tarbiya yo‘sinlarida ham ko‘rinadi. Xalqimiz murosai madora, qo‘schni haqi, xalq mulki, yaxshilik nimayu, yomonlik nima ekanligini juda yaxshi biladi. Unga xos “Bir kun urush-janjal bo‘lgan yerdan qirq kun baraka qochadi”, “Yon qo‘schni – jon qo‘schni”, “Qo‘sning tinch – sen tinch”, “Tinchlikning boshi birlikda” kabi serma’no maqollar tinchlik, ahillik, hamjihatlikning asl mazmun - mohiyatini aks ettirib, tarbiyaviy, axloqiy ahamiyatini ta’kidlaydi. Mamlakatimizning hozirgi tashqi siyosati ham aynan xalqimizning tinchlikparvarligi, yaxshi qo‘schnichilik ibrati, beg‘araz va sof niyatli xalq ekanidan dalolatdir.

To‘rtinchi jihatni-tinchlik madaniyatini rivojlantirish va unga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj bilan belgilash maqsadga muvofiq. Chunki, keyingi paytlarda tinchlikni saqlash va unda fuqarolarni ishtirokini ta’minalashda tinchlik madaniyati tushunchasi ilmiy muomalada tez-tez qo‘llanila boshlandi. Tinchlik madaniyati “Falsafa. Qomusiy lug‘at”da: “o‘z jamiyatining ichki rivojida uning barcha huquqini, har kishining to‘la miqyosda va imkoniyatlarini amalga oshirishda to‘liq ishtirokini ta’minlovchi madaniyatga erishishlik g‘oyasi asos qilib olinishi kerak”ligi nazarda tutildi”¹² deb ta’kidlanadi.

Beshinchi jihat - tinchlik va tinchlikparvarlik beba ho ne’mat, ulug‘ saodat ekanligini belgilovchi axloqiy mezonlar bilan izohlanadi. Insoniyat tarixida barcha millat va elatlar madaniy boylik sifatida, urf-odatlari ga esa cheksiz hurmat bilan qarab kelgan. Sog‘lom axloqiy muhit (etosfera)ni shakllanishi orqaligina ma’naviy boyliklarni saqlab qolish uchun, avvalo, qonli mojarolarga barham berish, tinchlik, barqarorlik, totuvlikni qaror toptirish, madaniy meros, osori-atiqalar, urf-odatlarni asrab-avaylash, dunyo xalqlarining ilm-fan yutuqlaridan birdek bahramand bo‘lishiga erishish zarurligini bugun butun insoniyat tushunib yetmoqda. Umuman olganda, tinchlikparvarlik - insonlarning tinch-xotirjam, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, ijod qilish, yaratgan ijod mahsullarining uzoq yillar mobaynida xalqni birlashtiruvchi ijtimoiy hodisa hamdir. Tinchlikparvlikning amalda namoyon bo‘lishi uchun yer yuzidagi har bir inson tinchlikning qadrini anglashi va o‘z faoliyati, dunyoqarashini axloqiy jihatdan shakllantirishini toqazo etadi.

Foydalanilgan адабиётлар:

1. Афлотун. Қонунлар. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. –Б 11-13.
2. Қуръони Карим. –Тошкент: Чўлпон нашриёти, 1992. 267 б.
- 3.Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. -186 б.
4. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. -37-б.
- 5.Абдулла Шер. Ахлоқшунослик /Дарслик.-Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари

12 Фалсафа. Қомусий луғат. -Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, “Шарқ” нашриётматбаа акциядорлик компанияси Баш таҳририяти, 2004. -400 б.



миллий жамияти, 2010. -278 б.

6. The Russell-Einstein Manifesto. Манифест Рассела-Эйнштейна, <https://pugwash.org/1955/07/09/statement-manifesto>
7. Энтони Гидденс. Социология. Тошкент., Шарқ. 2002 Б. 387421.
8. Бьюкенен Патрик Жозеф. Фарбнинг ўлими. –Тошкент: “Илм-Зиё-Заковат” нашриёти, 2021. – 69 б.
9. Абдулла Шер. Ахлоқшунослик /Дарслик.-Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2010. -278 б.
10. Мирзиёев Шавкат. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: Ўзбекистон, 2021. -22 б.
11. Ҳерман Вамбери. .Бухоро тарихи. -Тошкент: Фан, 1990. -26 б.
12. Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳдил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-щтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган щтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига багишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. 2017 йил 14 январь. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. - 104 б.
13. Фалсафа. Қомусий луғат. -Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, “Шарқ” нашриётматбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2004. -400 б.